

BAXTINISO

(хикоя)

Tashqarida yomg'ir bir kuchayib, bir pasayib yog'yapti. Xozirgina bolalarini uxlatib chiqqan Baxtiniso deraza oldiga kelib, tashqariga mo'raladi. Osmonda xar vaqti chaqmoq chaqar, ovozi esa birozdan so'ng eshitilib yurakka qandaydir vahima solar edi. Lekin, yoz oylari bo'lganligi uchun bunday yomg'irlar hammaga birdek yoqar, jaziramadan qaqrab qolgan yerlar esa qonib-qonib suv ichishardi. Bu yomg'irni dehqonlar qanchadan buyon kutishgandilar. Baxtiniso beixtiyor derazani ochib yubordi. Yomg'ir yog'ganda keladigan yoqimli ifor shamol bilan kelib uyni tutib ketdi. Deraza pardalariga urilgan yomg'irlar ba'zida Baxtinisoning yuziga parda bilan urilib qandaydir ko'tarinki kayfiyat ulashardi. Baxtiniso yog'ayotgan yomg'irga tikilib turar ekan, shu paytgacha bo'lgan hayotini esladi. U qanday baxtiyor, qanday sho'x-shodon qiz edi-ya. Endi esa undan faqat ma'yus chehra, og'riqli xotiralar qolgan xolos.

Katta oilaning kichik farzandi bo'lgan Baxtiniso oilada yolg'iz qiz, qolgan akalari esa undan katta. Ota-onasi unga "baxtimiz butun bo'ldi" deb Baxtiniso ismini qo'yishgan. Biroq otasi qizini voyaga yetganini, oila qurganini ko'rolmadi. Erta vafot etdi. Onasi esa otasining o'rnini bosishga harakat qilar edi. Akalarining ko'pisi o'qimishli, kasb-hunarli bo'lganligi bois hech nimaga zoriqishmadi. Ammo, onasi qizini shaharda o'qishiga to'sqinlik qildi. Baxtinisodan oldingi akasi Jamol shaharda o'qib yurgan paytlari, avtohalokatga uchrab vafot etgandi. Onasi Sojida xola esa qizining ham biror ko'ngilsizlikga uchrashidan qo'rqdi, yana qiz bola bo'lsa unga o'qish nimaga kerak deb uni o'qitmadi. 10-sinfni bitirishi bilanoq, katta davlatmandning o'liga turmushga berdi. Turmush o'rtog'i juda yaxshi inson bo'lsa ham uning singillari va onasi Baxtinisoga kun berishmadi. Axiyri boshqa uy olib bo'lak chiqib ketishdi. Bu orada bir o'g'illik ham bo'lishdi. Biroq, hayotda baxt hech qachon to'la – to'kis bo'lmas ekan. Endi eri juda o'zgarib qoldi. Chunki, avval umuman oila tashvishi boshiga tushmagan, doimo otasining puliga kun kechirayotgan Adham vaqt o'tgan sari nochorlasha boshladi. Otasidan yordam so'rashga g'ururi yo'l qo'ymadi. Oxiri chet elga ishlashga ketadigan bo'ldi.

Baxtinisoning hayoli bo'linib ketdi. Qizining usti ochilib qolgan ekan, uyqusi aralash yig'lab turdi.

- Voy qizginamdan aylanay, kap-katta qiz ham yig'laydimi a?- qizini bag'riga bosib erkaladi.- bo'ldi, bo'ldi yig'lama endi. Agar yig'layversang ertaga maktabingga borib sinfdoshlaringni oldida Yulduz yig'loqi qiz deb aytaman.

- Yo'q aytmang- deb yuzidagi yoshlarini artib yana uyquga ketdi. Yomg'ir esa tinish o'rniga yanada kuchli yog'a boshladi. Baxtiniso yana deraza oldiga keldi. O'tmishni eslashni xohlamas edi. Biroq, negadir o'tkazgan kunlarini, bu uyda oilada bo'lgan voqealarni eslamay bo'lmasdi ham. Adham chet elga ketganda ketdi-yu, ammo o'z oilasini unutib ham yubordi. Oradan qancha vaqt o'tdi sal-kam olti yil! O'g'li 8 ga qizi esa 7 ga kirdi. Bir yili kelganda esa uyida katta janjal chiqargandi. Avvalgi Adhamdan asar ham qolmagandi. Uyiga kelsa faqat ajrashish to'g'risida gapirardi, ajrashish uchun xatto xotiniga qo'l ko'tarishdan ham toymadi. Lekin, Baxtiniso xali tug'ulmagan farzandi va o'g'lining kelajakini o'ylab ajrashish haqida o'ylab ham ko'rmadi. Adham oxirgi kelganida qizi xali endi 1 yoshda edi. O'shanda u Baxtinisoga ishlab yurgan yeridan bir ayolga uylanganlikini lekin, bu yerdagi nikohini bekor qildirmaguncha u taraflarning fuqorosi bo'lolmasligini aytdi. Baxtiniso:

- Meni aybim nima o'zi? Onam tanlaganga turmushga chiqqanimmi. Meni o'ylamasangiz ham bolalaringizni o'ylang axir! Qanaqa odamsiz o'zi?- deb zor-zor yig'ladi. Oraga onasini qo'shdi. Onasi ming xil gap aytib yo'lga solmoqchi bo'ldi. Biroq ta'sir etmadi. qaynonasi va uning qizlari albatta Adham tarafda bo'lishdi.

- O'g'limiz chet elning fuqorosi bo'lsa nima qilibdi? Uylansa nima bo'пти. Kelin, bilishingizcha dinimiz 4 ta xotinli bo'lishga ham ruhsat bergan – deb qaynonasi Baxtinisoga og'iz ochirtirmadi. Baribir Baxtiniso ajrashish haqidagi hujjatga imzo chekmadi. O'shandan beri eri unga na telefon qiladi, na pul yuboradi. Oldin qo'shnilaridan u-bu uchun qarz olib turdi. Keyin, onasidan yordam so'raydigan bo'ldi. Ammo, akasining xotini Baxtinisoni kelsa xushlamaydigan, gapirsa ham shama bilan gapiradigan, Baxtinisoning bolalarini jerkib tashlaydigan bo'ldi. Baxtinisoning eng ayanchli, eslasa qalbini ezadigan kunlari esa bolalarining ba'zi paytlarda bir burda nonga zor bo'lib qolishgan vaqtlari edi. U hamma narsani unutishi mumkin ammo farzandlarining ochlikdan sillasi qurib yotib qolgan vaqtlarini hech esidan chiqara olmaydi. Yordam puli to'g'iray desa unga ham pul kerak. Qarz olgan qo'shnilarini ko'rganda esa uyalganidan yerga qarab o'tadi. Xaliyamki ular insofli, vijdonli va sharoitni tushunishadigan insonlar ekan. Yana ularning qiyin kunlarida yordam bergan qo'shnisi Sarvi xola bo'ldi. Necha marta ularga moddiy taraflama yordam berdi. U yaxshi eslaydi bir kuni Sarvi xola

ularnikiga chiqqandi, o'shanda bolalarining kasal bo'lib yotganini ko'rib darrov shifokorga olib borgandi. Ular tuzalib ketguncha barcha dori-darmonlarini o'zi olib berdi.

- Baxtiniso singlim., nima kerak bo'lsa uyalmay so'rayvering. Qo'shnichilik - ming yilchilik deyishadi axir. Siz hijolat bo'lmang. Eringiz yaxshi ishlab kelsa bir kuni osh damlab chaqirasiz meni, ana undan keyin sizni mendan, meni sizdan qarzim yo'q . – deb kulib qo'ygandi ham. Baxtiniso ishga kiray desa faqat maktabni bitirgan. Xozirda esa katta-katta universitetlarda o'qiganlarni, dunyo ko'rganlarni ishga olishayapti. Oddiygina farroshlik yoki restoranlarda idish yuvuvchi bo'lay deb ishga kirganida qaynonasi rosa baqirgandi.

- Uyalmaisizmi kelin, bu nima qilganingiz? Kimsan falonchi boyning kelini farrosh deb ustimdan kulsinlarmi a? g'ururingiz qani kelin? Obro'imizni to'kmangda axir - arazlagandek gapirgandi qaynonasi.

- Oyijon axir siz ham tushuning Adham akam pul yubormasa, yordam puli berilmasa yoki o'zim o'qigan bo'lib biror davlat ishida ishlamasam edi sizni mendan achchig'lanishingizga yetarlicha sabab bo'lardi. Bolalarimni usti yupun, qorni och bo'lib yurishiga qanday chidayin axir. Onamdan yordam so'ray desa kelinoyilarim bor. O'zi oxirgi paytlarda uyga qadam ham bostirmay qo'yishdi – o'pkasi to'lib yig'lab yubordi .Shu kuni qaynonasi ortiqcha gapirmadi. Xaliyamki bir marotaba bo'lsayam vijdoniga quloq solibmi, xar xolda nabiralarini bir bozorga olib borib maktablik kiyimlarini olib berdi. Baxtinisoga ham oz-moz pul berib ketdi. Biroq yotib yesang tog' ham chidamas deganlaridek yana avvalgi xolat boshlandi. Qish kunlari edi puli yo'qligidan xatto farzandlariga poyabzal ham olib berolmagandi. Ertalab qarasa o'g'li Sobir tuflising teshilgan joyiga oldin yelim xaltaning qirqilgan parchasini keyin karton qog'oz va yana qirqilgan parchadan qo'yib tuflisini kiydi. Onasi buni ko'rib yilab yubordi. Tashqarida izg'irin, qorli qish. O'g'li esa yarim och xolda yana issiq kiyimlarsiz maktabga ketayapti. Qizi Yulduz esa yozgi tuflisi kichrayib qolganligi uchun orqasini bosib kiyar qor-yomg'ir yog'ganda Baxtiniso maktabdan to uyigacha qizini ko'tarib kelar edi. Xali hayot nimaligini tushunmaydigan yosh bolalarning bunday qiyinchiliklarga duchor bo'lganini ko'rgan Baxtiniso uyidan qochib ketib bo'lsa ham o'qishi kerak ekanligini o'ylab o'zini-o'zi koyir, kechalari bilan yig'lab chiqardi. Eri boshqa yurtda yana bir ayol bilan mazza qilib xohlagan kiyimini kiyib , begona bir ayolga pul sarflayman deb o'z oilasini , o'z farzandlarini xor-u zorlikga tashlab qo'ygandi. Oxiri Baxtiniso bu azoblarga chiday olmay katta akasi chiday olmay katta akasi Burhondan yordam so'radi. Bu akasining ayoli haliyamki vijdonli, sof dil va o'z vaqtida yordam qo'lini cho'za oladigan inson. Gulmira Baxtinisoni yoniga oldi . O'zining tikuvchilik sexida ish

o'rni ajratib, unga bichish-tikishni o'rgatdi. Yaxshigina maoshni ham tayin qilib qo'ydi. Shunday qilib Baxtiniso o'zini o'nqlab oldi. Biroq, bolalarining, o'zining ko'rgan qiyinchiliklarini hech qachon esidan chiqarmaydi. Shu hayollar bilan bo'lib yomg'ir tinganini ham sezmay qolibdi. Birdan eshikni kimdir taqillatdi. Baxtiniso oldin soatga qaradi soat 03:07 bo'lgan edi. Shu yarim kechada kim ekan deb Baxtiniso qo'rqib ketdi. Eshikka yaqin bordi va kim deb so'radi.

- Bu men Baxti, eshikni och – degan ovoz eshitildi. Baxtiniso ovozni eshitishi bilan bor vujudida titroq paydo bo'la boshladi. Chunki, bu ovoz tanish ovoz edi. Eshikni sekin ochdi va ro'parasida umuman tanib bo'lmaydigan holatga kelgan insonni ya'ni erini ko'rdi. Insonning tashqi ko'rinishi o'zgarsa ham hech qachon ko'zlari o'zgarmaydi. Baxtiniso ham erini ko'zlaridan tanidi.

- *****

- Adham birinchi yil uyidan ishlash uchun ketganida rosa qiynaldi. Ularni olib ketgan odam hujjatlarini olib qo'ydi, bir necha oydan keyin esa ularni yana bir boshqa odamga sotib yubordi, xuddi quldek. Ularni sotib olgan yangi xo'jayin esa ish soatini 18 soatga chiqardi. Issiqni issiq, sovuqni sovuq demay ishlata edi. Qurilishda ham, issiqxonada ham ishlayverishdilar. Biroq sabr – kosasi to'lgan Adham oxiri chiday olmadi. Xo'jayinining yoniga kirib o'z haq- huquqlarini talab qila boshladi.

- - Menga qarang , necha oydan beri tinmay ishlatmiz. Na pul berasizlar, na yaxshi yeb-ichim. Yotadigan joyimizni aytmay ham qo'yavering. Jonimizga tegib ketdi biz boshqa yerga ishga o'tmoqchimiz- juda ham achchiqlanib gapirardi Adham.

- - O-o-o-o, talab qilasan-mi. Sen o'zi bu yerda kim ekanligingni bilasanmi? Sen qulsan, qul! Men seni har biringni sotib olganman. Men sizlarni xohlagan paytim qo'yib yuboraman, xohlagan paytim itdek ishlataman. Ishlaring osonlik qilyaptimi a? Menga qara

-kerak bo'lsa endi uch mahal yeyayotgan ovqatlaringizni ikki mahalga tushiramiz. Yana bir narsani bilib ol pulni eslab ham o'tirma. Endi bor yo'qol- Shunday jazavasi tutib baqirar ediki bu odam ko'proq hayvonga o'xshab ketar, har baqirgani sayin maxluqning tusini olib borar edi. Shu kundan boshlab yana ularning hayoti og'irlashdi. Adham yengil hayotga o'rganganligi sababli jismoniy mehnat unga og'irlik qildi. Oxiri og'ir kasal bo'lib yotib qoldi, shu bilan unga hech kim e'tibor bermay qo'ydi. Faqat qishloqdoshigina xabar olar edi. Oxiri ular ikkalasi bir ilojini qilib qochib qolishdi. o'shanda Adham betob bo'lganligi uchun chekka qishloqdagi duch kelgan birinchi

xonadonga kirishdi.Bu yerda yoshi 50-55 larga borgan kampir yolg'iz yashar ekan. Shunday qilib , Adham shu yerda ham yashirindi, ham tuzalib oldi. Biroq unga eng yoqqan narsa , aniqroqi eng yoqqan odam kampir jiyani o'zi tengi bir ayol edi. Buni qarangki oxir-oqibat Adham uchun rus ayoli yangi yengil ish topdi. Adham bu orada uyiga borib keldi, lekin u oilasi va uning tashvishlaridan charchaganligi uchun uyidan,Vatanidan soviy boshladi.Natijada rus ayoliga bog'lanib unga bor-budini, pullarini sovurdi. Oilasini unutdi.Ayolning niyyati esa bu yuvvosh otni egarlab itdek ishlatish edi xolos. Buning uchun unga hech xalaqit bermasliki kerak edi. Xar kuni Adhamga oilasidan voz kechishi kerakligi, bo'lmasa qonuniy nikohdan o'tolmasligini uqtirardi. Uni necha yillab ishlatib qo'ydi.Oxir oqibat boshqa bir chaqqonroq va boyvachcharoq ovunchoq topib, Adhamni pulsiz, nochor axvolda ko'chaga xaydadi. Adham 1 yil azob chekib bir amallab qaytish pulini topa oldi xolos. Shunda xayolidan bir narsani hech qachon ketkazmasdi. Bu ham bo'lsa bolalarini va xotining nohaq to'kkan ko'z yoshlari edi. Ularning yoshlarini uvoli tutgan edi.

- *****

-Meni kechir... - eri shu gaplarni ayta oldi xolos.Baxtiniso Adhamdan nima bo'lganligini so'rashga yoki uni tergashga hojat ham qolmagandi. Chunki erining o'zi vaqti kelib hammasini aytib beradi. Baxtiniso uzoq o'yladi,bir og'iz so'z ham aytmadi, biror imo-ishora ham qilmadi.Bu sukunatni buzishga Adhamning ham xaddi sig'masdi.Baxtiniso uzoq jimlikdan so'ng chetga o'tdi. Eri esa Baxtinisoning nima demoqchi ekanligiga tushundi va ichkariga qadam bosdi. Baxtiniso esa erining kir, yamoq bo'lib ketgan kiyimlariga, aft-angoriga qarab turarkan, o'tgan 6 yil ichida o'zining va farzandlarining bir burda nonga zor bo'lgan paytlari ko'z oldida bir-bir gavdalandi.

- ... Oradan kunlar, oylar, yillar o'tdi.Baxtiniso va eri Adham, bankdan kredit olib o'zlarining kichik bizneslarini boshlashdi. Qulaygina joydan do'kon ochishib , oziq-ovqat mahsulotlarini sota boshlashdi.Eri ham eski odatlarini tashlab,yangi hayot boshladi.Kichik oila katta orzular bilan yangi hayot bo'sag'asiga qadam tashlar ekanlar, ularning umidlari puchga chiqmadi.Tez orada ishlari yanada yurishib avval bankdan olgan kreditni, keyin Baxtiniso bir paytlari qo'shnilardan olgan qarzlarini to'lashdi. Tez orada yangi uy olib ko'chib ketishdi. o'shanda eri takror va takror shu jummlarni aytar edi:

- Omad va davlat erkak kishiga 3 marta beriladi. Lekin uni qachon kelishi, qanday bo'lishini hech kim bilmaydi. Men birinchi omadimni yoshligimda otamning davlatiga ishonib yo'qotdim, ikkinchisini qora o'tmishim bo'lmish chet elda yo'qotdim, lekin uchinchi bolalarim va xotinimni saqlab qoldim. Aniqrog'i ular meni saqlab qolishdi- deb kulib qo'yar edi. Keyinchalik Baxtiniso va eri kelinoyisi bilan birgalikda ish yuritishdi. Yangi do'kon ochib tikuv sexidagi ko'ylaklarni sota boshlashdi va bu mahsulotlar bozorning old mahsulotiga aylandi. Ikkala do'kon ham 24 soat davomida ishlar, kunduzgi sotuvchilarni Baxtiniso, kechqurungilarni Adham kuzatib borardi. Bugun Baxtiniso do'kon nazorati uchun erta kelibdi-mi yoki kechki sotuvchilar xali o'rin almashib ulgurishmabdimi xar xolda ular uyqusirab do'konda kutib turishardi. Baxtiniso do'konga kirganidan birinchi bo'lib avvalgi qo'shnisi Durdona bilan uchrashib qoldi. U qaynonasinikida yashaganda ular bilan juda inoq edi. Qaynonasi bilan ham ko'rishmaganiga ancha bo'ldi. Chunki, Adham kelgan yili qaynonasini ularni ajratmoqchi edi. Adham rozi bo'lmagandan keyin o'rtadagi aloqani uzdi- qo'ydi.

- Durdona yaxshimisiz, bolalaringiz, xo'jayningiz tuzukmilar? Meni qaynonam qalay yaxshimizlar?- oxirgi gaplarini sekin so'radi Baxtiniso.

- Voy, opajon bilmaysizmi? Qaynotangiz oxirgi paytlarda juda qarzga botib ketgan ekan. Shuning uchun korxonalari ham yopildi. Zarar sifatida ularning bor mol-mulki musodara qilindi. Essiz!- Durdona essiz deganda Baxtinisoning bu xabarlarini bilmasligini nazarda tutdi.

- Durdonaxon, unda iltimos ularning xozirgi yashash manzilini bilib bersangiz. Sizdan juda xursand bo'lardim
- Baxtiniso ularni eski uylariga ko'chirishni mo'ljallagan edi. Xarna qilsa ham ular uning ikkinchi ota-onasi, eriga ham bolalariga ham yot kimsalar emas..

- Manzil bo'yicha borar ekan, qaynonasi yana qanday karomat ko'rsatishini o'ylar, agar xohlasa u ayol Baxtinisoni oldiga solib quvishi ham mumkin edi. Mashina to'xtaganda Baxtiniso hayron qoldi. Chunki bu yerlar juda ham xaroba faqat bitta 4 qavatli imorat bo'lib, atrofi chiqindilarga to'la, daydi itlar izib yurishar edi. Baxtiniso 1 qavatda ko'k temir eshikni taqillatdi. Ichkaridan qari qaynonasining siniq tovushi eshitildi. Eshikni ochgan qaynonasining ko'zlari ichiga botib ketgan, yuzlaridagi ajin ko'payib yanada qarib qolgandek edi go'yo. Baxtiniso kutmagan xolat ro'y berdi qaynonasi uning oyoqlariga yiqilib dod-faryod bilan yig'lay boshladi.

- Qizim, kechiring, sizning baxtingizga zomin bo'ldim. Qizlarim sizga qilgan ishlarimni o'zimga qaytarishdi. Ularning uyiga sig'madim. Sizni va nabiralarimni xor-u zor qilib qo'ydim..- qaynonasini yupatishga uringan Baxtiniso umuman gangib qolgan edi.

- Oyijon, bo'ldi yig'lamang men sizni olib ketmoqchiman, dadamni ham. Men bularning barchasini unutganman..

Shu kuniyoq qaynona va qaynota kelini bir paytlari qiynalib yashagan uyga ko'chib o'tishdi. Baxtiniso esa bir narsani qalbining tub-tubidan xis qilar edi. Bu uy unga nafaqat baxtsiz damlarni balki shirin xotiralar bo'lmish bu uyga eri bilan ilk bor kelganini, farzandlarining birinchi qadamlarini va ularning shodon qiyqiriqlarini esladi. O'shanda beixtiyor bu uy uning ko'ziga hamma uylardan ham hashamatliroq va qadrliroq ekanligini tushunib yetdi.

Тамара Ҳайтбоева

